

**BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING YOZMA NUTQINI  
O‘STIRISHDA DIKTANTLARNING TUTGAN O‘RNI**

**Umarova Muniraxon Akmaljon qizi**

*Qo‘qon universiteti 4-kurs talabasi*

**Sadriddinova Zulfiya Mirzaliyevna**

*Qo‘qon universiteti Ta’lim kafedrasи katta o‘qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu tezisda "Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yozma nutqini o‘stirishda diktantlarning tutgan o‘rni" mavzusi o‘rganilgan. Diktantlar boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarining yozma nutqini rivojlantirishning samarali vositasi sifatida ajralib turadi. Tezista, diktantlarning o‘quvchilarga imlo, tinish belgilari, so‘z va gap tuzish qoidalarini o‘rgatishdagi ahamiyati, shuningdek, ular orqali o‘quvchilarining diqqatini jamlash, xatolarni aniqlash va tuzatish ko‘nikmalarining shakllanishi tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:** O‘quvchi, o‘qituvchi, yozma nutq, boshlang‘ich ta’lim, nutq, savodxonlik, diktant.

“Inson ma’naviy kamolotga erishuvida, jamiyatning madaniy – ma’rifiy rivojida ona tilining o‘rni favqulodda muhimdir. Til milliy ma’naviyat, ma’rifat va madaniyatning eng holis va xira tortmas ko‘zgusidir. Hadisi shariflarda “Kishining zebu ziynati, go‘zalligi uning tilidadir” deyiladi<sup>45</sup>. Har qanday davlat va jamiyat taraqqiyotining asosiy harakatlantiruvchi kuchi yoshlardir. Hozirgi kunda ta’lim-tarbiya tizimini yanada rivojlantirishga katta e’tibor qaratilib kelinmoqda. Buning yorqin misoli tariqasida ta’lim va tarbiyani yanada rivojlantirishga oid qo‘srimcha chora tadbirlar<sup>46</sup>, xalq ta’limi sohasidagi ilmiy tadqiqot faoliyatini qo’llab quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari<sup>47</sup>, pedagog kadrlarni tayyorlash, xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi<sup>48</sup> qarorlarini misol tariqasida keltirishimiz mumkin.

Bundan tashqari tarixga nazar soladigan bo‘lsak A.Navoiy o‘zining ”Mahbub ul-qulub” asarida shunday deydi: ”Til muncha sharaf bila nutqning olatidur va ham nutqdirki, gar napisand zohir bo‘lsa, tilning ofatidur...”<sup>49</sup> ya’ni, tilning shunchalik sharafi bo‘lgani bilan u nutqning qurolidir, agar u o‘rinsiz ishlatilsa, tilning ofatidir deya ta’rif

<sup>45</sup>N.Mahmudov “O‘qituvchinutqima ’daniyati.– Toshkent. 2007.– B. 3.

<sup>46</sup>O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 06.11.2020-yildagi PQ-4884-son.

<sup>47</sup>O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 25.01.2021-yildagi PQ-4963-son.

<sup>48</sup>O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 26.09.2017-yildagi PQ-3289-son.

<sup>49</sup>A.Navoiy. Mahbub ul-qulub. 14-tom.– T. 1998.– B.94.

berganliklarini ham ko‘rishimiz mumkin. Shunday ekan bola nutqini rivojlantirish, eng avvalo, til qobiliyatini shakllantirishni talab qiluvchi muloqot shakllarini rivojlan tiruvchi demakdir<sup>50</sup>.

Nafaqat Sharq, balki butun dunyo tib ilmida o‘ziga munosib taxt yaratgan buyuk bobomiz Ibn Sino inson hayvondan aqli va tili bilan farq qilishini, shuning uchun insonning eng barkamoli – oqil va so‘zga chechani ekanligini aytadi<sup>51</sup>. Haqiqatdan ham insonlar bilan og‘zaki va yozma nutq orqali suhbat qurayotganimizda Ibn Sino aytganidek oqil va so‘zga chechani uchrab qolsa u bilan qayta-qayta suhbatlar qurgimiz kelaveradi.

Yoshlarning esa sog’lom, yetuk avlod bo‘lib voyaga yetishida ta’lim sohasi asosiy poydevor vazifasini bajaradi, savodxonlik darajasini oshirishda “Ona tili” fani, shu jumladan, yozma ishlar asosiy o‘rin egallaydi. Zamonaviy ta’limda o‘quvchilarining yozma nutqi, ularning fikrini aniq va ravon ifodalash qobiliyati muhim o‘rin tutadi. Bu jarayonni rivojlantirish esa boshlang‘ich sinfdan boshlab amalga oshirilishi kerak. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini uchun yozma nutqni o‘stirishning samarali vositalardan biri – diktantdir. Diktantlar o‘quvchilarining tilni tushunish, imlo va tinish belgilari qoidalarini o‘rganishda, shuningdek, diqqat va e’tiborini jamlashda muhim rol o‘ynaydi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yozma nutqini o‘stirishda diktantlarning o‘rni nafaqat grammatikani o‘rganish, balki ular fikrlash va yozish ko‘nikmalarini rivojlantirishga ham yordam beradi. O‘quvchilar matnni eshitib yozish orqali yozma imlosini, balki matnni mantiqan va tartib bilan qurishni ham o‘rganadilar. Shuningdek, bu jarayon ularning ortiqcha xatolarni aniqlash va to‘g‘rilash ko‘nikmalarini ham shakllantiradi.

“Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yozma nutqini o‘stirishda diktantlarning tutgan o‘rni” mavzusi o‘zining dolzarbliji bilan ta’lim sohasida muhim ahamiyat kasb etadi. Yozma nutq o‘quvchilarining tilni to‘g‘ri va aniq ifodalash, fikrni bayon etishdagi ko‘nikmalarni rivojlantirishda asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Diktantlar esa bu jarayonda o‘quvchilarining yozma nutqini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Diktantlar o‘quvchilarga yozuvni o‘rganish va uni mustahkamlashda yordam beradi. Ular o‘quvchilarining imlo, tinish belgilari, so‘z va gap tuzish qoidalariga rioya qilishlarini tekshirish imkoniyatini yaratadi. Bu o‘z navbatida o‘quvchilarining yozma nutqini yanada sifatli va ravon qilishga yordam beradi.

Bundan tashqari, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini uchun yozma nutqni o‘stirishdagi diktantlarning dolzarbliji shundaki, ular o‘quvchilarining diqqatini diqqatni jamlashga va xatolarni aniqlashga qaratadi. Bu orqali o‘quvchilar o‘z yozuvlarini yaxshilash, xatolarni tuzatish va yanada yaxshi ifodalay olishni o‘rganadilar. Shu bilan birga, bu usul

<sup>50</sup> D.R.Babayeva. Nutq o‘stirish nazariyasiga metodikasi. (Darslik). – T.: ”Barkamol fayz media”, 2018. – B.432.

<sup>51</sup> R.Aliybek. Adiblar odobidan adablar. – Toshkent. Ma’naviyat. 2003. – B.12.

o‘quvchilarda tafakkur va xotira rivojlanishiga ham yordam beradi, chunki ular matnni eslab qolish, uning mazmunini tushunish va yozishga yod olishni o‘rganadilar.

Hozirgi kunda ko‘plab o‘qituvchilar o‘quvchilarning yozma nutqini o‘sirishda diktantlarni samarali usul sifatida qo‘llab kelmoqdalar. Bu jarayon, albatta, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ta‘lim sifatini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Hozirgi kunda yuqori sifatli imlo ko‘nikmalariga ega bo‘lgan, yozma nutqi rivojlangan o‘quvchilarni tarbiyalash boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yozma nutqini rivojlantirishda diktantlarning o‘rni nihoyatda katta ahamiyatga egadir.

Diktant (lotincha dictare – hadeb gapiravermoq, takrorlamoq; aytib turib yozdirmoq) imloviy va punktuatsion qoidalarning o‘zlashtirilish darajasini tekshirish uchun aytib turib yozdiriladigan yozma ish<sup>52</sup> turi hisoblanadi. O‘quvchilarda diktant yozish jarayonida paydo bo‘lgan malakalar uning yozma nutqini rivojlatiradi va yuqori sinflarda bayon, insho yozish jarayoniga zamin yaratadi.

Diktantlar o‘quvchilarda ko‘rish, eshitish, fikrlash, yozma va og‘zaki nutqini rivojlantiruvchi vositalardan biri hisoblanadi.

Diktantlar oldiga qo‘yilgan maqsadiga ko‘ra turlicha bo‘lishi mumkin, ya’ni bilimlari darajasini bilish, xotirasini sinash, yozish tezligini tekshirish va hokazo<sup>53</sup>. Shunga ko‘ra diktantlar ko‘zlangan maqsadiga ko‘ra ikki turga bo‘linadi<sup>54</sup>:

1. Ta’limiy diktantlar.
2. Tekshiruv diktantlari.

Ta’limiy diktant.Diktantning bu turi uchun dars jarayonida alohida biror soat ajratilmaydi.Faqatgina o‘tilgan mavzularni mustahkamlash uchun 1-sinfda yozuv darsi, 2-3-4-sinflarda esa ona tili darslarining ma’lum bir qismida olinadi.Ta’limiy diktantlar o‘rganilayotgan mavzu yuzasidan har bir darsning 5-10 daqiqasi yoki 10-15 daqiqasi davomida va ba’zan to‘liq dars jarayonida o‘zlashtirilgan bilimni mustahkamlash maqsadda o‘tkaziladi<sup>55</sup>.

Darslarda o‘quvchilar zo‘r qiziqish bilan ishtirok etadigan, hamda o‘quvchilarning yozma nutqini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan o‘yindan namuna keltirib o‘tamiz.

### ”Safar” o‘yini

“Safar” o‘yinini o‘tkazish uchun o‘quvchilarga maktabdan, uylaridan yoki biror xonadan ma’lum bir masofagacha bo‘lgan yo‘lni tasvirlash topshirig‘i beriladi. O‘quvchilar esa berilgan topshriqni ko‘z oldilariga keltirib yo‘lidan kelayotganda yo‘lda va uning yon-atrofida ko‘rgan barcha narsa va hodisalarni tasvirlab daftarlariga

<sup>52</sup>A.Madvaliyev.O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Toshkent. – B.611.

<sup>53</sup>D.Eshonqulova, G.Rahmatova.Diktantlar to‘plami. – Toshkent. 2018. –B.49.

<sup>54</sup>Q.Abdullayeva, S.Rahmonbekova.Diktantlar to‘plami. – Toshkent. – B.5.

<sup>55</sup>I.Xolmurodov, S.Musayeva.Diktantlar to‘plami. – Qoraqalpog‘iston. – B.4.

yozadilar. Bu o‘yin o‘quvchilardan sinchkovlik, kuzatuvchilik va ziyraklik qobiliyatlarini tekshirish imkonini beradi. Bu o‘yining tag zaminida Vatanni sevish, atrof-muhitga e’tiborli bo‘lish talab etiladi, hamda bu hissalarini tarbiyalaydi. Bundan tashqari ona tili darslarida o‘qituvchi bu o‘yindan foydalanadigan bo‘lsa, o‘quvchilarning yozma nutqi rivojlanadi, mustaqil fikrlash malakasi shakllanadi, lug‘at boyligi yanada ortadi.

### **“So‘z ichidan so‘z top” o‘yini**

“So‘z ichidan so‘z top” o‘yini individual holatda va o‘quvchilarni guruhlarga bo‘lgan holda o‘tkazilishi mumkin.

O‘qituvchi doskaga biror so‘zni yozadi, o‘quvchilar esa yozilgan so‘z ichidagi harflardan yangi so‘zlarini hosil qilib daftarlariiga yozadilar. Masalan: o‘qituvchi doskaga “Mustaqillik” so‘zini yozadi, o‘quvchilar esa uning ichidan yangi so‘z hosil qiladilar mis, qil, sut, sim, kit, sil, tik kabilarni.

“So‘z ichidan so‘z topish” o‘yini orqali o‘quvchilarning tezkorlik darajasi o‘rganilinib, ularning yozma nutqi rivojlantiriladi.

Yuqorida keltirilgan didaktik o‘yinlar o‘quvchilarning darsdagi faolligini oshirish bilan birga bilimlarni o‘zlashtirib borish jarayonini yengillashtiradi va mustahkamlaydi, o‘quvchilarning nutqini o‘sirishga yo‘naltirilgan har bir dars mashg‘ulotini qiziqarli tashkil etishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda diktantlar orqali o‘quvchilarning yozma ko‘nikmalarini mustahkamlanadi, bu esa ularning tilni to‘g‘ri ishlatish va bilimlarni mustahkamlash imkoniyatini yaratadi. Diktantlar o‘quvchilarning xotira va tafakkurini rivojlantirishga ham yordam beradi, chunki ular eslab qolish, tushunish va ifodalay olishni talab qiladi, diktantlarni muntazam ravishda o‘tkazish, o‘quvchilarning o‘z-o‘zini tahlil qilish qobiliyatini oshiradi va ularni yozma nutqda xatolardan xoli b o‘lishga undaydi.

Shu sababli, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yozma nutqini o‘sirishda diktantlarning o‘rni juda katta ahamiyatga ega. O‘qituvchilar bu usulni o‘quvchilarning yozma ko‘nikmalarini yaxshilash, ular orasida tilni tushunish va ifodalashdagi aniq bilimlarni shakllantirish uchun samarali vosita sifatida ishlatishlari lozim. Diktantlar orqali o‘quvchilar faqatgina imlo va yozuvni o‘rganmay, balki o‘z fikrlarini aniq va ravon ifodalashda mustahkam asos hosil qiladilar.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 06.11.2020-yildagi PQ-4884-sон.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 25.01.2021-yildagi PQ-4963-sон.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 26.09.2017-yildagi PQ-3289-sон.
4. A.Madvaliyev. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Toshkent. – B.611.
5. D.Eshonqulova, G.Rahmatova.Diktantlar to‘plami. – Toshkent. 2018. –B.49.
6. Q.Abdullayeva, S.Rahmonbekova.Diktantlar to‘plami. – Toshkent. – B.5.
7. I.Xolmurodov, S.Musayeva.Diktantlar to‘plami. – Qoraqalpog‘iston. – B.4.